

BADIIY ASAR TILI — ADABIY TA'LIMDA MUHIM BOSQICH

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Email: abdujabborovanilufar1214@gmail.com

[Tel: +998952430398](tel:+998952430398)

Ilmiy rahbar: Tillayeva Rayhona Tuxtasinovna

NamDPI pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asar tilining adabiy ta'limdagi o'rni va ahamiyati o'rganiladi. Badiiy matn orqali o'quvchilarda nutq madaniyati, estetik did va kommunikativ kompetensiya shakllantirishning usul va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. O'quv jarayonida badiiy tildan foydalanishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tili nafaqat adabiy, balki nutqiy, estetik va kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Maqola adabiyot o'qituvchilari va metodistlar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy asar tili, adabiy ta'lim, nutq madaniyati, estetik tarbiya, kommunikativ kompetensiya, badiiy matn, o'quvchi roli*

Abstract: *This article examines the role and significance of literary language in literary education. The methods and opportunities for developing students' speech culture, aesthetic taste, and communicative competence through literary texts are analyzed. The study employs systematic literature review and theoretical generalization methods. Effective ways of using literary language in the educational process are demonstrated. The results show that literary language is the most effective means of developing not only literary but also speech, aesthetic and communicative competence. The article is of practical importance for literature teachers and methodologists.*

Keywords: *literary language, literary education, speech culture, aesthetic upbringing, communicative competence, literary text, student.*

Аннотация: *В данной статье исследуются роль и значение языка художественного произведения в литературном образовании. Анализируются методы и возможности формирования культуры речи, эстетического вкуса и коммуникативной компетенции учащихся посредством художественного текста. В исследовании использованы методы анализа существующей научной литературы и теоретического обобщения. Указываются эффективные пути использования художественного языка в учебном процессе. Результаты показывают, что язык художественного произведения является наиболее эффективным средством развития не только литературной, но и речевой, эстетической и коммуникативной компетенций. Статья имеет практическое значение для учителей литературы и методистов.*

Ключевые слова: *Язык художественного произведения, литературное образование, культура речи, эстетическое воспитание, коммуникативная компетенция, художественный текст, роль учащегося.*

Kirish:

Bugungi kunda adabiy ta'lim tizimida badiiy asar tilining tutgan o'rnini tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchini shunchaki bilim egallovchi sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, nutqiy jihatdan boy, estetik jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni ko'zlaydi. Ana shunday yetuk shaxsni kamol toptirishda badiiy adabiyot va uning tili beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida adabiyot o'qitishning mazmuni va metodikasini yangilash masalasi ham dolzarb vazifalar qatorida turibdi.

Adabiy ta'limda badiiy asar tiliga e'tibor uzoq ilmiy tarixga ega. Adabiyot nazariyasida badiiy tilni o'quvchi tarbiyasining asosi sifatida ko'riladi. Badiiy tahlilning nazariy asoslari, matn tahlilining amaliy bosqichlarini belgilagan. Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, uning adabiy normani shakllantirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslangan. Yuldashev esa badiiy matn lingvistikasi nuqtai nazaridan til vositalarining estetik vazifasini tahlil qilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tilining adabiy ta'limdagi o'rnini asosan nazariy jihatdan o'rganilib, amaliy metodika va interfaol yondashuvlar bilan bog'liq bo'shliq saqlanib qolmoqda. Xususan, badiiy asar tilidan kommunikativ kompetensiya va estetik did shakllantirishda tizimli foydalanish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi badiiy asar tilining adabiy ta'limdagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish, uning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatish hamda o'quv jarayonida badiiy tildan samarali foydalanish yo'llarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: badiiy asar tilining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berish; uning adabiy ta'limdagi o'rnini aniqlash; kommunikativ kompetensiya va estetik did shakllantirishdagi rolini ko'rsatish.

Metodlar:

Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi: mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish; nazariy umumlashtirish; taqqosiy-tahliliy metod. Adabiyotlar tanlash mezonlari quyidagilardan iborat: manba o'zbek adabiy ta'limi, badiiy matn tili yoki kommunikativ kompetensiya mavzusiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lishi; muallif ko'rsatilgan va nashr sanasi mavjud bo'lishi; ilmiy nashrda yoki akademik muassasa resursida joylashtirilgan bo'lishi.

Taqqosiy tahlil davomida badiiy tilning ilmiy va publitsistik uslubdan farqlari, shuningdek, an'anaviy va interfaol usullarning samaradorligi o'rganildi. Nazariy umumlashtirish bosqichida esa adabiyotlar asosida badiiy asar tilidan ta'limda foydalanishning usuliy tamoyillari ishlab chiqildi. **Natijalar:**

Tilshunoslik fanida til uch shaklda — umumxalq tili, adabiy til va badiiy til tarzida tasnif etiladi. Badiiy til bu tasnifdagi eng yuksak pog'onani egallaydi, chunki u nafaqat muloqot vositasi, balki estetik his-tuyg'ularni uyg'otuvchi, insonni ichki dunyosiga ta'sir etuvchi san'at vositasidir.

Badiiy asar tili — yozuvchi tomonidan ongli ravishda tanlab olingan, estetik maqsadga bo'ysundirilgan til vositalarining yig'indisidir. Har bir ijodkor o'z asarini yaratishda so'z boyligidan sinchkovlik bilan foydalanadi: so'zlarni tanlaydi, ularni ma'lum bir tartibda joylashtiradi, tasviriy vositalar — metafora, sifatlash, mubolag'a, kinoya kabi badiiy san'atlardan unumli foydalanadi. Professor B.Umurqulov ta'kitlaganidek, badiiy nutq adabiy tilni rivojlantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, u adabiy normani shakllantirib boruvchi kuch hisoblanadi.

Badiiy asar tilining ilmiy yoki publitsistik uslubdan asosiy farqi shundaki, unda axborot berish emas, balki kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatish birinchi o'rinda turadi. M.Yuldashev bu farqni aniq izohlaydi: badiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchiga estetik ta'sir qilish bo'lsa, ilmiy matnda axborot yetkazish va dalillash ustuvorlik qiladi. Badiiy adabiyot tili, shuningdek, milliy tilning go'zalligi va nafosatini o'zida to'la mujassamlashtiradi.

Adabiy ta'lim tizimida badiiy matn bilan ishlash markaziy o'rinni egallaydi. O'quvchi badiiy asarni o'qiganida shunchaki voqealarni emas, balki yozuvchining so'z tanlashidagi mahoratini, obrazlarni yaratish usullarini, tilning ichki imkoniyatlarini ham birgalikda his etadi. Bu jarayon o'quvchida nutqiy sezgirlikni, ya'ni so'zning qanday vaziyatda qanday qo'llanilishini anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Adabiy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchini badiiy asarni to'g'ri va chuqur idrok etishga o'rgatishdir. Bu esa badiiy asar tilini tahlil qilish ko'nikmalarini egallashni taqozo etadi. Masalan, Abdulla Qahhorning hikoyalarida so'zning qisqaligi va aniqligiga, o'tkir va ta'sirchan badiiy vositalar qo'llanilishiga diqqatni qaratish — o'quvchida nafaqat adabiy did, balki o'z nutqida ham ixchamlik va aniqlikka intilish hissini tarbiyalaydi.

Badiiy adabiyot, shuningdek, o'quvchida lug'at boyligini oshirishning eng tabiiy va qiziqarli yo'li hisoblanadi. So'z badiiy matn orqali o'quvchiga ma'no va his-tuyg'u bilan birgalikda yetib boradi. Bu haqida adabiyot nazariyotchisi Qozoqboy Yo'ldoshev shunday yozadi: badiiy so'z o'quvchi ongida faqat ma'no tashimaydi — u obraz yaratadi, his uyg'otadi, fikr yurgizadi. O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishda ham badiiy asar tili beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining badiiy asar tiliga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq. O'qituvchi asarni o'quvchiga oddiy matn sifatida emas, balki yozuvchi ijodiy mehnatining mahsuli, so'z san'atining namunasi sifatida taqdim eta olishi kerak. Shu ma'noda o'qituvchi badiiy asar tili va o'quvchi o'rtasidagi ko'priklar vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta'lim standartlari o'quvchida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni asosiy natija sifatida belgilaydi. Kommunikativ kompetensiya — bu faqat til grammatikasini bilish emas, balki turli muloqot vaziyatlarida to'g'ri, aniq va ta'sirchan nutq qurishni uddalash

demakdir. Badiiy asar tili esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng boy materiali hisoblanadi: unda muloqotning barcha shakllari — dialog, monolog, ichki nutq, tasviriy ifoda — jamlanib keladi.

Badiiy asar tili orqali estetik tarbiya berish ham adabiy ta'limning ajralmas qismidir. O'quvchi badiiy asardagi so'z san'atini anglab yetganda, tilning go'zalligi va kuchi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladi. Bu esa uning o'z nutqiga ham yangicha munosabat bilan qarashiga turtki beradi: u o'z fikrini ifodali, ta'sirchan, o'rinli so'zlar bilan ifodalashga intila boshlaydi.

Adabiy ta'limda badiiy asar tilidan samarali foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin: matnni ifodali va sharhlab o'qish orqali so'zning ohang va ma'no uygunligini his ettirish; matndagi badiiy vositalarni aniqlash va ularning vazifasini tushuntirish; kichik ijodiy topshiriqlar — o'rganilgan asardan namuna olib jumlar tuzish, o'z his-tuyg'ularini badiiy uslubda ifodalash.

Shuningdek, turli xil interaktiv metodlar — “Klaster”, “Aqliy hujum”, “FSMU” texnologiyalarini badiiy matn tahlilida qo'llash darsni jonlantiradi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Matnning uslubiy va leksik xususiyatlarini guruh bo'lib muhokama qilish o'quvchiga tilning nozik qirralarini boshqalar bilan birgalikda kashf etish imkonini beradi.

O'zbek milliy adabiyotining durdonalari — Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor asarlari — adabiy ta'limda til o'rgatishning eng qimmatli manbasini tashkil etadi. Milliy adabiyot namunalari o'rganish orqali o'quvchi o'z tilining tarixiy ildizlari, uning shakllanganligi va rivojlanishi haqida ham tasavvurga ega bo'ladi. Bu esa o'quvchida til va adabiyotga nisbatan milliy g'urur va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi.

Adabiy ta'limda badiiy asar tili bilan ishlashning yana bir muhim jihati — o'quvchini mustaqil kitobxon sifatida tarbiyalashdir. Darsda o'rgangan asarlardan ilhomlanib, o'quvchi mustaqil ravishda yangi asarlarni o'qishga qiziqadi. Kitob o'qish odatini shakllantirish — adabiy ta'limning uzoq muddatli va eng muhim natijalaridan biridir.

Munozara

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tili adabiy ta'limda bir necha funksiyani — nutqiy, estetik va kommunikativ — bir vaqtda bajaradi. Bu xususiyat uni boshqa o'qitish vositalaridan tubdan farqlaydi. Mavjud adabiyotlar tahlili ham bu xulosani tasdiqlaydi: mualliflar umumiy xulosa sifatida badiiy tilning estetik ta'sir qilish qobiliyatini ta'limning asosiy resursi deb baholaydilar.

Biroq mavjud tadqiqotlarda bir qator ziddiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, nazariy manbalarda badiiy tilning ta'limdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Ikkinchi tomondan, Husanboyeva va Ibragimova kabi zamonaviy tadqiqotlar amaliy metodikani ko'proq o'rganish zarurligi haqida ogohlantiradi. Bu ziddiyat ushbu tadqiqotning dolzarbligi uchun muhim asosdir.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, u faqat nazariy tahlilga asoslangan bo'lib, empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlanmagan. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu nazariy xulosalarni amaliy

tajribalar orqali sinab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Xususan, raqamli texnologiyalar va multimediya vositalari yordamida badiiy matn tahlilini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari adabiyot o'qituvchilari uchun quyidagi amaliy tavsiyalarga zamin yaratadi: badiiy asar bilan ishlashda interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va mustaqil o'qishga undash usullarini birgalikda qo'llash; darsni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi asarni nafaqat mazmun jihatdan, balki til va uslub jihatdan ham chuqur idrok etsin.

Xulosa

Badiiy asar tili — adabiy ta'limning asosi va eng kuchli pedagogik vositalaridan biridir. U o'quvchida nutq madaniyatini, estetik didni, kommunikativ kompetensiyani va mustaqil ijodiy tafakkurni shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi nafaqat adabiyotni, balki ona tilining barcha go'zalliklarini ham chuqur his etadi va o'zlashtiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uchta asosiy xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, badiiy asar tili estetik ta'sir qilish xususiyati tufayli boshqa o'qitish vositalaridan ustun turadi. Ikkinchidan, badiiy tildan ta'limda samarali foydalanish an'anaviy va interfaol metodlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilganda eng yuqori natijani beradi. Uchinchidan, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari kommunikativ kompetensiya va milliy o'zlikni shakllantirish uchun alohida qadr-qimmatga ega.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun asosiy yo'nalish sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: badiiy asar tilidan foydalanishga asoslangan metodikaning samaradorligini empirik yo'l bilan sinab ko'rish; raqamli vositalar bilan integratsiyalashgan badiiy tahlil modelini ishlab chiqish; turli ta'lim bosqichlariga mo'ljallangan badiiy tahlil mezonlari va rubrikalarini yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. "Adabiyot o'qitish metodikasi" — Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.
2. Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" — O'qituvchi, 2005
3. Quronov, D. Adabiyotshunoslik lug'ati — Fan, 2010
4. Mustafae, D. Badiiy tafakkur va adabiy tahlil. — Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2014.
5. Yo'ldosh, Q. "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli" — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023.
6. Mukhamedova, R. Pedagogik texnologiyalar va metodlar: Adabiy tahlil usullari. — Toshkent: O'zbekiston yoshlar nashriyoti, 2018.
7. Raximov, N. Badiiy matn tahlili va uning pedagogik ahamiyati. — Tashkent: O'qituvchilar malakasini oshirish markazi, 2016.